

Fortepiano ta'limining bolalar musiqa mакtablaridagi o'rni

Go'zal Aktam qizi Madjidova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Fortepiano ta'limining bolalar musiqa mакtablaridagi o'rni muhim ahamiyatga ega. Fortepiano o'qitish, nafaqat musiqiy mahoratni rivojlantiradi, balki yosh avlodning umumiy intellektual va emotsiyonal rivojlanishiga, ijodiy fikrlashini shakllantirishga katta yordam beradi. Mustaqillik yillarda bu soha yanada rivojlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodikalar va texnologiyalar orqali fortepiano ta'limining samaradorligini oshirish bo'yicha jiddiy ishlarga erishildi. Mazkur maqolada O'zbekistonda bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta'limining o'rni va uning yosh avlodni musiqa madaniyati bilan tanishtirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqola fortepiano ta'limining pedagogik metodlari, bolalar musiqa maktablarida fortepiano o'qitishdagi amaliyotlar va mavjud muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano ta'limi, bolalar musiqa maktablari, musiqa ta'limi, pedagogika, yosh avlod, musiqa madaniyati, ta'lim metodikasi

The role of piano education in children's music schools

Guzal Aktam qizi Madjidova
Bukhara International University

Abstract: The role of piano education in children's music schools is important. Piano education not only develops musical skills, but also greatly contributes to the general intellectual and emotional development of the younger generation, the formation of creative thinking. During the years of independence, this area has further developed, and serious work has been achieved to increase the effectiveness of piano education through modern pedagogical approaches, methodologies and technologies. This article analyzes the role of piano education in children's music schools in Uzbekistan and its role in introducing the younger generation to musical culture.

Keywords: piano education, children's music schools, music education, pedagogy, young generation, musical culture, teaching methods

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida rivojlanishi bilan san'at va madaniyatga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikning ilk yillardan boshlab, mamlakatda musiqa va san'at ta'limiga bo'lgan qiziqish ortdi. Xususan, bolalar musiqa maktablari yoshlarning san'atkori sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Fortepiano ta'limi esa

bu jarayonda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Fortepiano o'qitish, nafaqat musiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, balki bolalarning umumiyligi intellektual rivojlanishiga, estetik didini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Fortepiano ta'limi orqali o'quvchilar musiqa asarlarini ijro etish, kompozitorlarning asarlarini chuqur anglash, ijodiy xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fortepiano - bu musiqaning eng keng imkoniyatlarga ega bo'lgan asboblaridan biri bo'lib, uning ta'lim tizimidagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Bolalar musiqa mакtablarida fortepiano yo'nalishi eng asosiy va ko'p tarqalgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu asbob orqali bolalar nafaqat musiqiy savodxonlikni egallaydilar, balki texnik, emotsiyonal va ijodiy jihatdan ham rivojlanadilar.

Fortepiano ta'limi musiqa maktablarida bir necha maqsadlarga xizmat qiladi. Eng avvalo, bu ta'lim bolalarning musiqiy didini shakllantirish, nota savodini o'rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va sahna madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Fortepianoda o'rganiladigan asarlar orqali o'quvchilar turli uslublar, davrlar va bastakorlar ijodi bilan tanishadilar, bu esa ularning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Fortepianoning bolalar musiqa maktablaridagi o'rni, eng avvalo, uning universal xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bu asbob yakka holda ham, ansambl tarkibida ham ijro etilishi mumkin. U orqali boshqa asboblar yoki vokalchilar bilan hamkorlik qilish, hamnafaslikni his qilish o'rganiladi. Ayniqsa, solfej, nazariy fanlar va xor mashg'ulotlarida fortepiano ko'makchi vosita sifatida faol qo'llaniladi. O'qituvchilar dars jarayonida ushbu asbob orqali tonallik, intervallar,akkordlar va ritmik strukturalarni tushuntiradilar.

Bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta'limi, odatda, kichik yoshdagagi bolalar bilan boshlanadi. 6-7 yoshdan boshlab, bolalar bir necha yil davomida individual darslar asosida fortepianoni o'rganadilar. Dastlabki bosqichda qo'llar holati, tovush chiqarish texnikasi, nota o'qish, oddiy etyudlar va qo'shiqlar ustida ishlanadi. Keyingi bosqichlarda esa bolalar murakkab asarlar, klassik kompozitorlarning pyesalari va fortepiano sonatinasi yoki sonatalari bilan tanishadilar.

Fortepiano darslari o'quvchining mustaqil ishslash ko'nikmasini rivojlantiradi. Har bir yangi asar ustida ishslash jarayoni o'quvchidan mehnatsevarlik, e'tibor, xotira va barmoq harakatlarining muvofiqligini talab qiladi. Bu jihatlar bola shaxsini har tomonlama tarbiyalaydi: u mas'uliyatni his qiladi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va san'atga nisbatan hurmat uyg'onadi.

Musiqa maktablarida o'tkaziladigan imtihonlar, konsertlar, ko'rik-tanlovlari fortepiano yo'nalishidagi o'quvchilarning ijrochilik salohiyatini yuzaga chiqaradi. Sahna madaniyati, tinglovchi bilan emotsiyonal aloqani saqlash, obrazni ochib berish kabi ko'nikmalar aynan shu jarayonda shakllanadi. Fortepiano ta'limi, shuningdek,

kompozitsiya va improvizatsiya elementlarini ham o‘z ichiga oladi, bu esa ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

Bugungi kunda fortepiano ta’limida zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Raqamli pianino, interaktiv notalar, onlayn platformalar (masalan, Simply Piano, Piano Marvel) orqali mashg‘ulotlar yanada qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, darslardan zavq olishlariga xizmat qiladi.

Maqlolaning maqsadi O‘zbekistondagi bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta’limining o‘rnini, uning ahamiyatini va yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilishdan iboratdir. Bu boradagi metodikalar, pedagogik yondashuvlar va amaliyotlarni ko‘rib chiqish, fortepiano ta’limining samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish maqsad qilingan.

O‘zbekistonda musiqa ta’limi tarixiy jihatdan boy va qadimiydir. XX asr boshlarida fortepiano ta’limi faqat professional musiqachilar uchun mo‘ljallangan edi. Biroq, 1930-40 yillarda bolalar musiqa maktablari tashkil topa boshladi, bu esa fortepiano ta’limining ommalashishiga olib keldi. Ayniqsa, sovet davrida fortepiano o‘qitish tizimi yanada rivojlandi, yangi metodikalar joriy etildi, o‘quvvchilarni tayyorlashga katta e’tibor berildi.

Mustaqillikdan so‘ng, O‘zbekistonda fortepiano ta’limining sifatini oshirish uchun yangi yondashuvlar va pedagogik metodlar ishlab chiqildi. Ko‘plab yangi o‘quv dasturlari, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, musiqiy asboblarning ta’mnoti va pedagogik resurslar bilan ta’minalash borasida katta ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistondagi bolalar musiqa maktablarida fortepiano ta’limi nafaqat musiqa mahoratini rivojlantiradi, balki milliy va jahon musiqasi bilan tanishtiradi, musiqiy did va estetik dunyoqarashni shakllantiradi.

Forte piano o‘qitish nafaqat musiqa asarlarini ijro etishni o‘rganish, balki bolalar psixologiyasini hisobga olgan holda ularning kognitiv va emosional rivojlanishiga ham yordam beradi. Dastlabki davrda fortepiano o‘qitish bolalarga xotira, diqqat va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Musiqa asarlarini o‘qish va ijro etish jarayonida o‘quvchilar muvofiqlik, xotira va analistik fikrlashni takomillashtiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, fortepiano ta’limi bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi va o‘zini ifoda etishga yordam beradi.

Forte piano ta’limi metodikasi. O‘zbekistonda fortepiano ta’limining metodikasi yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bilan boyitilgan. O‘quvvchilarni tayyorlashda, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish muhim o‘rin tutadi. Ko‘pgina bolalar musiqa maktablarida fortepiano o‘qitish jarayoni alohida yondashuvni talab qiladi, chunki har bir bola o‘ziga xos qobiliyat va qiziqishlarga ega. Shuning uchun fortepiano o‘qitishda individual ta’limni

tashkil etish, musiqa asarlarini tanlashda o‘quvchilarning didini hisobga olish juda muhimdir.

Fortepiano darslarida musiqiy nutqni rivojlantirish, ritmni anglash, tekshirish va tinglash orqali bolalarning musiqiy sezgirligini oshirishga katta e’tibor qaratiladi. Pedagoglar fortepiano darslarini jonli, interaktiv va ijodiy tarzda o‘tkazishga harakat qilishadi. Bu jarayon bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Bolalar musiqa va san’at mакtablarida fortepiano ta’limi samaradorligini oshirishda bir qator muammolar mavjud. Bunga o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, musiqa asboblari bilan ta’minlanishdagi qiyinchiliklar, o‘quv materiallarining eskirganligi kabi masalalar kiradi. Shuningdek, ba’zi maktablarda o‘qituvchilar orasida metodik yondashuvlar bir-biriga mos kelmasligi va pedagogik tajribaning yetarli darajada almashilmasligi muammo sifatida qayd etiladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun, birinchi navbatda o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, musiqa asboblarining ta’minotini yaxshilash va dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni joriy etish zarur. Bundan tashqari, fortepiano ta’limining sifatini oshirish uchun, metodik yondashuvlar va pedagogik resurslarni yangilash va o‘qituvchilarni malakasini oshirish bo‘yicha doimiy treninglar tashkil etish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O‘zbekistonda fortepiano ta’limining bolalar musiqa mакtablaridagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Fortepiano o‘qitish, nafaqat musiqiy mahoratni rivojlaniradi, balki yosh avlodning umumiy intellektual va emotsiyal rivojlanishiga, ijodiy fikrlashini shakllantirishga katta yordam beradi. Mustaqillik yillarda bu soha yanada rivojlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodikalar va texnologiyalar orqali fortepiano ta’limining samaradorligini oshirish bo‘yicha jiddiy ishlarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov H. Fortepiano darsligi. O‘qituvchi.- T.: 1998 yil
2. Djomalova. D. “Fortepiano” darsligi.-T. “Musiqa” 2018 y
3. Zakirova Sh. O‘zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T., «O‘zbekiston». 2010.
4. I.I.Axtamov. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17

6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o‘rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o’rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
10. I.I.Axtamov. Maqom an’anaviy kasbiy musiqa namunalarini o‘rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. Scientific progress 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. Scientific progress 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. Scientific progress 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. Scientific progress 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. Scientific progress 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. Scientific progress 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. Scientific progress 2 (1), 1052-1059

22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. *Scientific progress* 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. *Scientific progress* 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музыкально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389